

TEMIR YO‘L TRANSPORTINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Qilichev Umid Ibodullayevich

Toshkent davlat transport universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada temir yo‘l transport tizimingning innovatsion faoliyatini rivojlantirishni belgilab beruvchi asosiy yo‘nalishlar, temir yo‘l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirishning asosiy vazifalari, O‘zbekistonda temir yo‘l transporti ishi ko‘rsatkichlari tendensiyalari tadqiq etildi, temir yo‘l transportini tarkibiy isloh qilishning eng muhim shartlari ko‘rsatib berildi, tahlil natijalariga ko‘ra o‘rganilgan muammolar tizimlashtirildi, shu bilan birga temir yo‘l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo‘llari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: temir yo‘l transporti tizimining innovatsion faoliyati, innovatsion model, innovatsion faoliyat, transport tizimi, vazifalar iyerarxiyasi, transport kompleksi, innovatsion salohiyat, intermodal va multimodal tashuv turlari, xizmatlar bozori, temir yo‘l transport infratuzilmasi, asosiy yo‘nalishlar, logistik konsepsiya imitasion model.

Аннотация

В статье рассматриваются основные направления, определяющие развитие инновационной деятельности в системе железнодорожного транспорта, основные задачи экономического развития системы железнодорожного транспорта, тенденции в функционировании железнодорожного транспорта Узбекистана, указываются важнейшие условия структурной реформы железнодорожного транспорта, по результатам анализа систематизируются изученные проблемы, предлагаются пути развития инновационной деятельности в сфере железнодорожного транспорта.

Ключевые слова: инновационная активность железнодорожной транспортной системы, инновационная модель, инновационная деятельность, транспортная система, иерархия задач, транспортный комплекс, инновационный потенциал, интермодальные и мультимодальные виды транспорта, рынок услуг, инфраструктура железнодорожного транспорта, основные направления, имитационная модель логистической концепции.

Abstract

This article examines the main directions determining the development of innovative activity of the railway transport system, the main tasks of the economic development of the railway transport system, the trends in the performance of railway transport in Uzbekistan, the most important conditions for the structural reform of railway transport are indicated, the problems studied are systematized according to the

results of the analysis, and at the same time, ways of developing innovative activity in railway transport are proposed.

Keywords: innovative activity of the railway transport system, innovative model, innovative activity, transport system, hierarchy of tasks, transport complex, innovative potential, intermodal and multimodal modes of transportation, service market, railway transport infrastructure, main directions, logistics concept simulation model.

KIRISH

Transport tizimi jahon iqtisodiyotining eng muhim infratuzilmaviy tarmoqlaridan biri bo'lib, uning samarali rivojlanishi har bir mamlakat iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi global iqtisodiy jarayonlarda barqaror o'sish va raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun innovatsiyalarni joriy etish muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalarga asoslangan rivojlanish modeli yalpi ichki mahsulotning 70-90 foizini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Temir yo'l transporti jahon transport tizimining strategik segmenti bo'lib, u yuk va yo'lovchi tashish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Jahon temir yo'llarining umumiy yo'lovchi aylanmasi 2 trln. yo'lovchi-km ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich mamlakatlar bo'yicha nisbatan tengsiz taqsimlangan bo'lib, eng yirik ulush Yaponiya va Yevropa mamlakatlariga to'g'ri keladi — taxminan 370-380 mlrd. yo'lovchi-km. Hindiston va Xitoy temir yo'l transporti ham yuqori darajada rivojlangan bo'lib, bu davlatlarda yo'lovchi aylanmasi qariyb 300 mlrd. yo'lovchi-km.ni tashkil etadi. Boshqa davlatlarda esa bu ko'rsatkich taxminan 200 mlrd. yo'lovchi-km atrofida bo'lib, ular asosan ichki bozor ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan.

Bugungi kunda transport infratuzilmasini rivojlantirish va innovatsion yechimlarni joriy etish sohani yanada samarali va barqaror qilishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Texnologik taraqqiyot, raqamli boshqaruv tizimlari va ekologik toza transport vositalarini keng joriy etish orqali temir yo'l transportining raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Shu bois, jahon tajribasidan kelib chiqib, milliy transport tizimini modernizatsiya qilish, logistika samaradorligini oshirish va innovatsiyalarni keng joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi lozim. [1].

Mamlakatimizda iqtisodiyotning muhim tarmog'i sifatida transport kommunikatsiyalarini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, 2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham "transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish, temir yo'l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish va avtomobil yo'llari tarmog'ini jadal rivojlantirish, transport sohasida tashqi savdo uchun "yashil koridorlar" hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish va tranzit yuk hajmini 15 million tonnaga yetkazish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan[2]. bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilganligi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Mahsulotlarimizni ichki va tashqi bozorlarga yetkazish, ularning tannarxini tushirish uchun transport-logistika sohasini rivojlantirishimiz zarur" [3] deb

ta'kidladilar. Bu o'z navbatida mamlakat transport-tranzit salohiyatidan va zamonaviy yetkazib berish texnologiyalaridan samarali foydalanishni hamda temir yo'l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirish yo'llari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borishning maqsadga muvofiqligini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Temir yo'l transport tizimini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari bir qator mahalliy va xorijlik olimlarining ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Ingliz iqtisodchisi Entoni Venablsning fikriga ko'ra transport kompleksi bu ijtimoiy ishlab chiqarishning yuklar va yo'lovchilarni tashishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga ixtisoslashgan xalq xo'jaligi tarmoqlari yig'indisi tushuniladi [4].

D. Bauersoksning fikricha, an'anaviy usullarga nisbatan yuk tashuvlarini tashkil etishning afzalligi va iqtisodiy samaradorligi masalalarini kiritgan holda multimodal va intermodal yuk tashuvlarini tashkil etish muammolariga alohida e'tibor qaratgan. Shu bilan birga muallif, transport tarmoqlari, transport vositalari va transport kompaniyalari o'z ichiga olgan transport tizimini alohida qayd etadi [5].

Mamlakatimiz olimlaridan G'.Samadov, A.Zoxidov, A.Gulamov va M.Ravshanovlarning fikricha "transport tizimi – bu yuk va yo'lovchilarni o'z manziliga yetkazish jarayonida o'zaro aloqasi bo'lgan transport turari va infratuzilmalari majmuasi, ya'ni o'zaro bog'liq bo'lgan transport sektorlari, mehnat resurslari hamda mamlakat iqtisodiyotini samarali boshqarish maqsadida transportning barcha turlarini boshqaruv tizimi tushuniladi" [6].

METODOLOGIYA

Temir yo'l transport tizimini samarali rivojlantirish muammolarini tahlil etish bilan shug'ullangan milliy va xorijlik olimlarning ilmiy izlanishlari natijalari mazkur tadqiqotning nazariy-uslubiy asosi va tizimning ham miqdor ham sifat jihatdan baholashga xizmat qildi. Maqolani tayyorlashda abstrakt va analitik mushohada, qiyosiy va omilli tahlil, indikativ, tanlanma kuzatuv, taqqoslash, iqtisodiy-statistik, induksiya va deduksiya, indikativ, tanlanma kuzatuv, taqqoslash, korrelyatsion va regression tahlil, iqtisodiy-matematik modellash, Isikava diagrammasi, aniq muddatda kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon davlatlari iqtisodiyotining barqaror va samarali rivojlanishida transport kompleksi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, chunki u iqtisodiyotning "qon aylanish" tizimi vazifasini bajaradi. Zamonaviy va samarali transport tizimi ichki bozorda xomashyo va mahsulot aylanmasini optimallashtirish orqali ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, tashqi savdo sohasida mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi va uning jahon bozoriga integratsiya jarayonlarini jadallashtirish imkoniyatini yaratadi. Umuman olganda, mamlakat iqtisodiyotini keng ko'lamda rivojlantirish va uning global iqtisodiy munosabatlardagi mavqeyini mustahkamlash mintaqalararo iqtisodiy

aloqalarning yuqori sur'atlarda bo'lishiga bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, transport infratuzilmasining samarali faoliyat yuritishi va logistika xizmatlarining yuqori darajada tashkil etilishiga bevosita bog'liqdir. Shu bois, transport tarmoqlarini modernizatsiya qilish va innovatsion yechimlarni joriy etish orqali iqtisodiy o'sishni jadallashtirish strategik ahamiyatga ega hisoblanadi. [7].

Mamlakat transport tarmog'ining iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini nafaqat miqdoriy o'sish, balki iqtisodiyotdagi sifat o'zgarishlari, ya'ni ilmiy-texnika taraqqiyoti va innovatsiyalarning tarqalishiga ta'sirini ham ko'rib maqsadga muvofiq. Transport tizimini mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'sir qilishning aniq natijalari orqali ochib beriladi (1-jadval).

1-jadval

Transport tizimining mamlakat iqtisodiy rivojlanishga ta'siri natijalari¹

№	Ta'sir ko'rsatishning turi	Ta'sirning natijalari
1.	Bevosita	mahsulot ishlab chiqarishi tannarxining pasayishi / oshishi; mahalliy korxonalar samaradorligini pasayishi / oshishi; aholining harakatlanish, rekreatsion imkoniyatlari, ijtimoiy aloqalarining o'sishi / cheklanishi.
2.	Bilvosita	investitsion muhitni yaxshilash; innovatsion faollikni oshirish. turdosh tarmoqlarning intensiv rivojlanishini rag'batlantirish; boshqa ishlab chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ulardan foydalanish uchun bozor imkoniyatlarini oshirish; yalpi talabning shakllanishi.
3.	Muddati	Uzoq muddatli takomillashtirish: biznes va aholining yuqori sifatli transport xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish; transport infratuzilmasi mavjudligidan soliq tushumlarini oshirish; aholini ish joylariga yetkazib berish; ish o'rinlarini yaratish; aholini mahsulot bilan ta'minlash (yetkazib berish). Qisqa muddatli ta'sir: xarajatlar pasayishi samaralari yoki, aksincha, sarflar oshishi; aholining yilning ma'lum bir vaqtida turli maqsadlarda ko'chib o'tishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish.
4.	Ta'sir ko'rsatish vositasiga ko'ra	Endogen ta'sir: korxonalar va aholi uchun transport bog'lanishni yaxshilash; mintaqaning va doimiy yashash joyi sifatida investitsiya jozibadorligini oshirish. Ekzogen ta'sir: mintaqaning mintaqalararo va tashqi iqtisodiy aloqalarga qo'shilishi.
5.	Ta'sir ko'rsatish darajasiga qarab	Mahalliy daraja — ichki tashishlarning rivojlanishi, mahalliy bozorlarning kengayishi, biznes uchun imkoniyatlarning oshishi, aholining harakatchanligini oshirish. Mintaqaviy daraja — biznesni kengaytirish, aglomeratsiyalarni shakllantirish imkoniyatlarini oshirish; aholining harakatchanligi va korxonalarni kadrlar bilan ta'minlashni yaxshilash. Milliy daraja — milliy xavfsizlikni, mamlakat hududiy yaxlitligini ta'minlash, biznesni kengaytirish uchun imkoniyatlar yaratish, aholi va kapitalning harakatchanligi.

¹ O'rganilgan adabiyotlar asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

Transport tizimi mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga strategik ta'sir ko'rsatadi. Xususan, transport infratuzilmasining takomillashtirilishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi va iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi. Institutsional iqtisodiyot nazariyasi nuqtayi nazaridan olib qaralganda, jismoniy va institutsional infratuzilmaning rivojlanishi tranzaksiya xarajatlarini (aloqa, transport va axborot xarajatlarini) kamaytirish imkonini beradi, bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Temir yo'l tarmog'i mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi va uning rivojlanish istiqbollarini belgilash, mavjud tendensiyalarni tahlil qilish va prognozlashtirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Temir yo'l transportining uzoq muddatli strategiyasini shakllantirish uning moddiy-texnika resurslariga, ishchi kuchi va moliyaviy barqarorligiga bo'lgan ehtiyojini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, sohada olib borilayotgan tadqiqotlar temir yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilish va transport-logistika xizmatlarining samaradorligini oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Temir yo'l transportining rivojlanish darajasi mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Chunki mahsulotning yakuniy narxi tarkibidagi transport xarajatlari va tovarlarni o'z vaqtida yetkazib berish imkoniyati mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish, temir yo'l tizimining asosiy faoliyat ko'rsatkichlarini tahlil qilish va mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda temir yo'l transporti ichki yuk tashish hajmining 5,3% va tranzit tashish hajmining 92,5%ini tashkil etadi, bu esa uning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Tashiladigan asosiy yuk turlari qatoriga ko'mir, don, neft va neft mahsulotlari, ruda, mineral o'g'itlar va katta hajmli suyuq yuklar kiradi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, temir yo'l transporti tog'-kon sanoati mahsulotlarini tashishda eng samarali vosita bo'lib, uning yanada rivojlanishi sanoat va eksport salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, temir yo'l infratuzilmasini yanada rivojlantirish, uning raqamli transformatsiyasini ta'minlash va logistika xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bunday yondashuv mamlakatning transport salohiyatini oshirish, uning jahon bozoriga integratsiya jarayonlarini tezlashtirish va iqtisodiy samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

2-jadval

Temir yo'l transportida ayrim turdagi yuklarni tashish hajmi¹ ming tonna

Ko'rsatkichlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Toshko'mir	3 971,0	3 712,7	442,9	5 632,6	5 231,0	4 459,2	5 673,8
Neft mahsulotlari	10 773,9	10 661,4	10 961,9	6 769,4	6 156,2	5 951,6	5 372,2

¹ "O'zbekiston temir yo'llari" AJ ma'lumotlari.

Ko'rsatkichlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Qora va rangli metallar	959,5	887,2	812,7	1 079,3	1 280,9	1 113,2	1 054,9
Kimyoviy va mineral o'g'itlar	4 304,2	4 381,3	4 049,8	3 451,4	3 602,6	4 210,9	4 641,7
Qurilish mollari	7 728,7	6 690,3	6 329,4	5 475,3	5 575,5	4 071,9	5 607,7
Sement	5 325,7	5 514,1	4 846,4	4 866,4	5 112,0	5 044,5	4 582,1
Yog'och mahsulotlari	46,3	21,2	18,9	27,1	31,2	19,7	23,0
Don va don mahsulotlari	1 266,9	1 269,6	1 662,4	1 737,1	1 645,2	1 898,6	2 000,4
Jami	34 376,2	33 137,8	29 124,4	29 038,6	28 634,6	26 769,6	28 955,8

Yuklarni yetkazib berishning kechikishi harakat tarkibining to'xtash punktlarida muammolar saqlanib qolganligi bilan izohlanadi, mazkur holat temir yo'l transporti o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni samarali ijrosini ta'minlash uchun harakatlanuvchi tarkibning faoliyat samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatadi. 3-jadvalda umumiy foydalanishdagi ishchi, yuk, harakatlanuvchi tarkibning ayrim turlaridan foydalanishni tavsiflovchi ma'lumotlar keltirilgan.

3-jadval

O'zbekistonda temir yo'l transporti ishi ko'rsatkichlari¹

Ko'rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Lokomotiv unumdorligi, sutkasiga ming tkm brutto	947	1015	1056	1110	1190	1200
Yuk vagonining unumdorligi, sutkasiga tkm netto	30	30,4	30,8	31,1	32	32,2
Yuk poyezdining uchastka bo'yicha o'rtacha tezligi, km-soat	32	31	30,6	31,3	30	31
Yuk poyezdining texnik tezligi, km-soat	39,3	39,7	40,4	40,7	41,1	41
Yuk vagonining o'rtacha aylanish vaqti, sutka	4,6	5,78	4,2	4,1	3,84	3,9

So'nggi o'n besh yilda yuk tashish hajmining 27%ga, yo'lovchilar sonining esa 86%ga oshganligi temir yo'l transportining ahamiyati ortib borayotganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, magistral lokomotivlarning inventar parkining 18,2%ga qisqarishi va yuk poyezdlarining uchastka tezligining 9,6%ga pasayishi tizimdagi o'tkazuvchanlik qobiliyatining ma'lum darajada kamayishiga sabab bo'lgan. Bu holat temir yo'l transportining samaradorligini oshirish borasida jiddiy chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

2016-2021-yillarda yuk poyezdlarining texnik va uchastka bo'yicha o'rtacha tezligi belgilangan me'yorlardan past bo'lgan. Bunday pasayishga asosan quyidagi omillar salbiy ta'sir ko'rsatgan: yuk poyezdlarining belgilangan vaqtdan kech qolishi, stansiyalardagi texnik nosozliklar, poyezdlarni qabul qilish va jo'natishda texnologik vaqt me'yorlarining ortishi hamda stansiyadagi nosozliklarni bartaraf etishga

¹ "O'zbekiston temir yo'llari" AJ ma'lumotlari.

ketadigan vaqtning uzayishi. Shuningdek, temir yo‘l transporti bilan bog‘liq ishchi xodimlarning faoliyati ham poyezdlar harakatlanish tezligiga ta’sir etuvchi omillardan biri sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Texnik va tashkiliy darajani miqdoriy baholash metodikasi korxonaning innovatsion faoliyati samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu metodika transport infratuzilmasini rivojlantirish va innovatsiyalarni joriy etish jarayonini samarali boshqarish uchun zamonaviy usullar orqali tekshirilishi va takomillashtirilishi lozim. Shu bilan birga, texnik va tashkiliy darajadagi o‘zgarishlarning iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sirini baholash uchun samarali indikatorlar ishlab chiqilishi zarur.

Texnik, tashkiliy va iqtisodiy darajalar o‘rtasida aniq matematik bog‘lanish mavjud emas, ammo ularning o‘zaro ta’siri tizim samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun boshqaruv jarayonini takomillashtirish maqsadida texnik va tashkiliy darajani miqdoriy baholash metodikasidan foydalanib, innovatsion faoliyat natijalarini monitoring qilish hamda baholash zarur. Bu jarayonda innovatsiyalarning samaradorligini baholash uchun muayyan ko‘rsatkichlar ishlab chiqilishi lozim. Transport tizimini modernizatsiya qilish va yuqori samaradorlikka erishish uchun texnik baza, tashkiliy jarayonlar va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur tahlil qilish zarur.

Innovatsiyalarni joriy etishdagi yillik iqtisodiy samara mana bu formula bilan aniqlanadi:

$$S_{in} = \sum_{i=t_n}^{t_m} (N_T - X_T) * k_t \quad (1)$$

bu joyda:

S_{in} — innovatsiyalar tatbiq qilingandan keyingi yil davomida ko‘rilgan iqtisodiy samara, so‘m hisobida;

N_T — innovatsion tadbirlar amalga oshirilgach, natijalar hisoblanib, uning qiymat bahosi, so‘m;

X_T — innovatsiyalarni tatbiq qilishga mo‘ljallangan yillik xarajatlar, so‘m hisobida;

t_m — amalga oshirilgan ishlar oqibatlar va ularning miqdori;

k_t — xar xil vaqtda bo‘ladigan xarajatlar va ularning oqibatlarini bir vaqtga olib keltirish (diskontlash) koeffitsiyenti – mana bu formula bilan aniqlanadi:

$$k_t = (1 + E_T)^t \quad (2.2)$$

bu joyda: k_t — vaqti turlicha bo‘lgan xarajatlar va natijalarni bitta vaqtga olib kelish me‘yori berilgan bo‘lib, u son jihatdan kapital qo‘yilmalarning samaradorlik koeffitsiyentiga teng ($k_t = 0.1$); t — mazkur yildagi xarajatlar va natijalarni hisob-kitob yilidan ajratib turadigan yillar soni.

Hisobot yili sifatida mahsulot ishlab chiqarish (tashishni tashkil etish va h.k.) boshlangan yoki yangi texnologiya, mehnatni yoki boshqaruvni tashkil etishning yangi usullari qo‘llangan yildan oldingi va barcha ko‘rib chiqilayotgan innovatsiyalar

variantlari orasidagi birinchi kalendar yili olinadi. Agar xarajatlar hisobot yili boshlanishidan oldin amalga oshirilgan bo'lsa, ular k_t – bitta vaqtga keltirish koeffitsiyentiga ko'paytiriladi, agar hisob-kitob yilidan keyin amalga oshirilsa – k_t ga bo'linadi.

N_T – mana bu formula bo'yicha aniqlanadi:

$$N_T = \sum_{i=t_n}^{t_m} (N_t^j - N_t^b) * k_t \quad (2)$$

Transport sohasida davlat innovatsion siyosati qoidalarini amaliyotga joriy etish jarayonida asosiy o'rinlardan birini egallovchi “O'zbekiston temir yo'llari” AJ mamlakatdagi eng yirik kompaniya va umummilliy temir yo'l transport kompaniyasi hisoblanadi. Korporativ innovatsion siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ushbu mexanizm ishlatiladi.

Korporativ innovatsion siyosat – bu shunday to'plamki unda xo'jalik yurituvchi subyektning oqilona tashkiliy-iqtisodiy, ilmiy-texnik va ijtimoiy rivojlanishini rag'batlantirishga qaratilgan innovatsion boshqaruvchi ta'sir etish maqsadlari, shakllari va usullaridan iboratdir. “O'zbekiston temir yo'llari” AJning innovatsion siyosati uni umummilliy transport kompaniyasi sifatida rivojlantirishga, kompaniyaning uzoq muddatli samarali ishlashi va moliyaviy barqarorligini oshirishga, xizmatlar sifatini oshirishga, transport ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirishga va xalqaro transport tizimiga chuqur integratsiyalashuviga qaratilgan.

“O'zbekiston temir yo'llari” AJ ustavida belgilangan maqsadlarga erishish uchun kompaniya rahbariyatiga jamiyatda yagona texnik, ilmiy-texnik va innovatsion siyosatni olib borish, zarur investitsiya resurslarini jalb qilgan holda kompaniyaning ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlanishini ta'minlash, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, loyiha, qidiruv, qurilish, qurilish-montaj va ta'mirlash-qurilish ishlarini tashkil etish, jamiyatning intellektual mulkini boshqarish va tasarruf etish vazifalari yuklatilgan. Korporativ innovatsion siyosatni shakllantirish hamda amalga oshirish yo'nalishlari “O'zbekiston temir yo'llari” AJda 1-rasmda keltirilgan (1-jadval).

Innovatsion siyosatni korporativ darajada amalga oshirish strategik, taktik va tezkor rivojlanish rejalari tizimini ishlab chiqish va joriy etish orqali ta'minlanadi. Rivojlanish jarayonlarini rivojlantirish tizimining xususiyati, shuningdek, innovatsiyalarni boshqarish tizimidagi darajalar va alohida bo'g'inlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik jarayonlarining xususiyatlari rejalashtirilgan tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonining mazmuni bilan belgilanadi.

“O'zbekiston temir yo'llari” AJdagi innovatsion jarayonlarni tashkil etish boshqaruv apparatining vakolatiga kiradi va uning asoslarini aniqlash jamiyatning boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi. “O'zbekiston temir yo'llari” AJ faoliyatiga umumiy rahbarlikni Direktorlar kengashi amalga oshiradi. Uning vakolatlariga quyidagi masalalar kiradi: jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash; kompaniya faoliyatining istiqbolli rejalari va asosiy dasturlarini, shu jumladan yillik byudjetlar va kompaniyaning investitsiya dasturini tasdiqlash.

Jamiyat kollegial boshqariladi. Uning ijro organi boshqaruv apparati hisoblanadi.

Jamiyat boshqaruvining vakolatlariga kompaniya faoliyatining joriy rejalarini ishlab chiqish va tasdiqlash kiradi. Bundan tashqari kompaniya faoliyatining ustuvor yo'nalishlari va ularni amalga oshirish bo'yicha istiqbolli rejalarini, shu jumladan jamiyatning yillik byudjetlari va investitsiya dasturini ishlab chiqish va direktorlar kengashiga taqdim etish, ularning bajarilishi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash ishlari kiradi.


Temir yo'l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning asosiy maqsadi temir yo'l transportida fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish uchun tashkiliy va iqtisodiy sharoitlarni yaratishdir.

Temir yo'l transporti sohasida innovatsion siyosatni shakllantirish va amalga oshirish davlat va korporativ darajadagi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayon temir yo'l transportining samarali faoliyat yuritishi, raqobatbardoshligini oshirish va zamonaviy talablarga javob beruvchi infratuzilmani yaratish uchun muhim ahamiyatga ega.

Davlat miqyosida temir yo'l transporti sohasida innovatsion siyosatni shakllantirish va amalga oshirishda qator ustuvor yo'nalishlar belgilangan. Avvalo, davlat ilmiy-texnikaviy va innovatsion siyosatining infratuzilma elementlari, sanoat ishlab chiqarishi va boshqa sohalardagi integratsiyasini ta'minlash talab etiladi. Bu jarayonda davlat tomonidan yagona ilmiy-texnik va innovatsion siyosatni yuritish hamda investitsiya jarayonlarini muvofiqlashtirish zarur. Shuningdek, temir yo'l transporti sohasida innovatsion tadqiqotlar va eksperimental ishlanmalarni moliyalashtirish, bu jarayonga davlat byudjeti va tarmoq jamg'armalarini jalb etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, texnik reglamentlar va standartlarni ishlab chiqish, tasdiqlash hamda ularning amalga oshirilishini nazorat qilish, shuningdek, majburiy sertifikatsiyalash va standartlashtirish tizimini takomillashtirish talab etiladi.

Temir yo'l transporti tashkilotlarida korporativ innovatsion siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda tashkilotning yagona texnik, ilmiy-texnik va innovatsion siyosatini shakllantirish talab etiladi. Shuningdek, tashkilot va uning tarkibiy bo'linmalari faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, ilmiy-texnikaviy rivojlanish rejalarini ishlab chiqish va tasdiqlash, shu jumladan investitsiya dasturlarini amalga oshirish muhim o'rin tutadi. Temir yo'l tashkilotlari ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish uchun zarur investitsiyalarni jalb qilishi, ilmiy-tadqiqot va loyiha-tajriba ishlarini amalga oshirishi, shuningdek, qurilish va muhandislik ishlarini samarali tashkil etishi lozim.

Temir yo'l tarmog'ida innovatsion siyosatni rivojlantirish uchun intellektual mulkni boshqarish va muhofaza qilish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Bu jarayon ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirish jamg'armalarini tashkil etish, loyiha-konstruktorlik faoliyatini rivojlantirish va yangi texnologiyalarni joriy etish bilan uzviy bog'liq. Shu sababli, davlat va korporativ darajadagi innovatsion siyosatni muvofiqlashtirish, investitsiyalarni jalb etish va tarmoqdagi texnologik o'zgarishlarni rag'batlantirish temir yo'l transportining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi o'rin tutadi.



1-rasm. Temir yo‘l tarmog‘ining davlat va korporativ innovatsion siyosatini shakllantirish hamda amalga oshirish yo‘nalishlari¹

Temir yo‘l transportining innovatsion rivojlanishi iqtisodiyotning barqaror o‘rinishini ta‘minlashda va transport infratuzilmasini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Davlat va korporativ innovatsion siyosatni shakllantirish va amalga oshirish mexanizmlari mazkur sohaning uzluksiz modernizatsiya qilinishini hamda investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni talab etadi. Davlat miqyosida ilmiy-texnikaviy va innovatsion siyosatni ishlab chiqish, tarmoq infratuzilmasini takomillashtirish, investitsiya jarayonlarini muvofiqlashtirish, standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, temir yo‘l tashkilotlarida korporativ innovatsion siyosatni yuritish ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini rag‘batlantirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish

¹ Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

quvvatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Innovatsion siyosatni takomillashtirish, shuningdek, intellektual mulkni himoya qilish, loyiha-konstruktorlik va tadqiqot faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish bilan bevosita bog'liq.

Shuningdek, davlat va korporativ innovatsion siyosatni muvofiqlashtirish, ilmiy va investitsiyaviy dasturlarni amalga oshirish, transport-logistika infratuzilmasini takomillashtirish, yuqori texnologik yechimlardan foydalanish sohaning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu chora-tadbirlar temir yo'l transportining uzoq muddatli strategik rivojlanishiga asos bo'lib, iqtisodiy samaradorlikni oshirish, resurslardan foydalanish darajasini yaxshilash va global bozorda milliy transport tizimining integratsiyasini kuchaytirishga imkon beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Temir yo'l transportining innovatsion rivojlanishi sohadagi samaradorlikni oshirish, iqtisodiy raqobatbardoshlikni kuchaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo'nalishda innovatsiyalarni joriy etish uchun bir qator takliflar ishlab chiqish lozim.

Avvalo, temir yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan innovatsion investitsiya dasturlarini amalga oshirish zarur. Bu jarayonda zamonaviy yuqori tezlikda harakatlanuvchi poyezdlar parkini yangilash, energiya tejankor texnologiyalardan foydalanish va temir yo'l liniyalarining texnik holatini yaxshilash ustuvor yo'nalish sifatida qaralishi kerak. Shuningdek, temir yo'l tarmog'ida raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish, avtomatlashtirilgan dispetcherlik markazlarini rivojlantirish va harakat xavfsizligini kuchaytirish uchun innovatsion yechimlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Transport-logistika xizmatlarini rivojlantirish maqsadida, temir yo'l transportida konteyner tashish tizimini kengaytirish, intermodal va multimodal tashishlar uchun logistika markazlarini tashkil etish talab etiladi. Bu yuk tashish jarayonini tezlashtirish, transport xarajatlarini kamaytirish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga imkon beradi. Shuningdek, temir yo'l transportida blokcheyn texnologiyalari, sun'iy intellekt va Internet-narsalar (IoT) kabi raqamli yechimlarni joriy etish, monitoring va tahlil jarayonlarini takomillashtirishga yordam beradi.

Temir yo'l transport tizimida foydalanilayotgan muhandislik inshootlari, elektr ta'minoti va signallashtirish tizimlarini takomillashtirish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanish lozim. Shu maqsadda, intellektual datchiklar, sun'iy intellekt asosidagi avtomatlashtirilgan diagnostika tizimlarini joriy etish orqali texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish maqsadga muvofiqdir.

Temir yo'l sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash va innovatsion tadqiqotlar uchun davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish zarur. Innovatsion mahsulotlar va texnologiyalarni ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlash maqsadida, ilmiy tadqiqot institutlari va temir yo'l kompaniyalari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, startaplar va innovatsion klasterlarni tashkil etish zarur.

Shuningdek, temir yo'l transportida ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida "yashil" texnologiyalardan foydalanish, elektrlashtirilgan temir yo'l tarmoqlarini

kengaytirish va vodorod yonilg'isida harakatlanuvchi poyezdlardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish lozim. Karbon izini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash innovatsion rivojlanishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

Shu tariqa, temir yo'l transportini innovatsion rivojlantirish uchun infratuzilmani modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, transport-logistika xizmatlarini rivojlantirish va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks yondashuv zarur. Bu chora-tadbirlar orqali temir yo'l transportining samaradorligi va raqobatbardoshligi oshirilib, milliy va xalqaro transport tizimidagi mavqeyi mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://data.worldbank.org/indicator/is.air.good.mt.k1>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
3. Коврижных И.В. (2016) Анализ и оценки эффективности управления в организации / И.В. Коврижных. – Барнул: АФ СибАГС – 86с.
4. Зоҳидов А.А. (2018) Марказий осие транспорт тизимини самарали бошқариш механизмини такомиллаштириш. Иқт. фан. док. ... дис. Автореф., Тошкент.
5. Гуламов А.А. Темир йўл компаниясининг асосий капиталини иқтисодий жиҳатдан баҳолаш методологиясини такомиллаштириш ("Ўзбекистон темир йўллари" АЖ мисолида). Иқт. фан. док. ... дис. Автореф., Тошкент 2020.
6. Ярашова В.К. Ўзбекистон транспорт тизимини ривожлантиришнинг макроиқтисодий жиҳатлари. Иқт. фан. док. ... дис. Автореф., Тошкент 2022.